

## JINOYAT PROTSESSIDA MUTAXASSIS FIKRIDAN DALIL SIFATIDA FOYDALANILISHI

**Abduvahobov Sherzodbek Abduvahobovich**

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi**

**E-mail: [sherzodbekabduvahobov01@gmail.com](mailto:sherzodbekabduvahobov01@gmail.com)**

**Orcid: 0009-0008-4580-3540**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.12664321>**

Jinoyat protsessida dastlabki tekshiruvga zaruriyat tug'ilganda, maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislariga isbot qilishni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan jalb qilinadi. Jumladan, dastlabki tekshiruv davomida mutaxassislar ishtirokiga ehtiyoj pul belgilarini qalbakilashtirish, giyohvandlik ekinlarini yetishtirish (*agronomlar*), giyohvandlik yoki psixotrop vositalari, ularning analoglarini saqlash (*farmasevtlar*), sog'liqqa turli darajada zarar yetkazish (*shifokorlarning dastlabki tibbiy xulosasi*), elektron dalillarni qayd etish, qurol-yarog' yoki o'q-dorilarni noqonuniy muomalaga chiqarish, diniy mazmundagi adabiyotlarni ajratib olish belgilarini baholashda yuzaga keladi.

Huquqshunos olim Ye.A.Semenovning fikricha, dastlabki tekshiruv davomida mutaxassis quyidagi savollarga javob berishi mumkin:

- muayyan ob'ektlar ilgari bir butun bo'lmaganmi;
- ashyo sovuq yoki o'qotar qurolga tegishlimi, otish uchun yaroqlimi, muayyan sharoitlarda tepki bosmasdan ham o'q otilgan bo'lishi mumkinmi;
- muhr va shtampning bosma nusxasi soxtalashtirilmaganmi;
- yong'in nima sababdan kelib chiqqan;
- imzoni muayyan shaxs qo'yganmi;
- ushbu modda narkotik vositami;
- muayyan shaxsning sog'lig'iga yetkazilgan shikast kattaligi qanday va hokazo [1, 84-91].

Ye.A.Semenovning bu borada bildirgan fikrlarga to'liq qo'shib bo'lmaydi, chunki dastlabki tekshiruv yuzasidan bildirilgan savollarga ekspertiza tadqiqotlari natijasida javob topish mumkin.

Dastlabki tadqiqot tushunchalari yuzasidan bir qator huquqshunos olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Jumladan, Ye.A.Semenov, jinoyat protsessi fanida dastlabki tadqiqot deganda ekspertiza sharoitida olib boriladigan yakuniy tadqiqotdan avval ob'ektlarni o'rganish tushuniladi, deb fikr bildirgan [2, 30-33].

Fikrimizcha Ye.A.Semenovning dastlabki tadqiqot borasi bildirgan fikrlariga qo'shilish mumkin. Chunki, dalillarni to'plash, topish yoki rasmiylashtirish jarayonida ekspertiza tadqiqotlari shart bo'lgan aksar holatlarda mutaxassis o'zining dastlabki fikrini beradi.

Amaliyotda mutaxassisning dastlabki fikrlari ekspertiza xulosasiga mos kelishi mumkin. Bundan ko'rish mumkinki, maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassisning fikrini dastlabki tadqiqot natijasi sifatida e'tirof etib, kelgusida dalil sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, mutaxassis fikri, uning tuzilish shakli, tartibi JPKda mustahkamlanib qo'yilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" gi qonunining [3] 14-moddasiga muvofiq "predmetlarni va hujjatlarni tekshirish" tezkor-qidiruv tadbirlari mavjud bo'lib, mazkur tezkor-qidiruv tadbiriga muvofiq tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish maqsadida predmetlarni va hujjatlarni o'rganish uchun zarur ilmiy, texnikaviy va boshqa

maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb etgan holda o'tkazilishi ko'rsatilgan. tezkor-qidiruv tadbiridan jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etishda foydalanish mumkin va hokazo. Ular jinoyat ishi qo'zg'atish uchun sabab va asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, ammo isbotlash predmetini aniqlashning zaruriy sharti (*ko'p hollarda tadqiqot ma'lumotnomasida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha*) sud ekspertizasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, tezkor bo'linmaning tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi xodimi jinoyat to'g'risidagi xabarni tekshirish uchun dastlabki tekshiruv tayinlashda har doim mutaxassis qanday usullardan foydalanishi mumkinligini tasavvur qilishi kerak – ushbu usullar tadqiqot ob'ektiga zarar yetkazmasligi kerak. Chunki, kelajakda ekspertiza tayinlash zarur bo'lishi mumkin, buzuvchi usullar qo'llanilganida esa buning iloji bo'lmaydi.

Mazkur qonunning 19-moddasi ikkinchi qismiga asosan, tezkor-qidiruv faoliyati materiallari jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asos bo'lishi, shuningdek bu materiallardan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalariga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha isbot qilishda foydalanilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi qarori [4] 9-bandining m-kichik bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi qonunida nazarda tutilgan talablar buzilgan holda to'plangan bo'lsa dalillar maqbul emas deb topilishi ko'rsatib o'tilgan.

Tergov amaliyotida ba'zi holatlarda mutaxassisning fikri ekspert xulosasining o'rniga o'tishi mumkin. Jumladan, mutaxassisning fikri yoki dalolatnomasi, boshqa dalillar singari, tegishliligi, maqbulligi, ishonchliligi bo'yicha, jami to'plangan dalillar majmui esa jinoyat ishini hal qilish uchun yetarliligi nuqtai nazaridan baholanishi kerak (JPK 84 va 95-moddasi).

Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, yuritilgan jinoyat ishlari doirasida isbot qilish jarayonida 2018 yilda 782 marta, 2019 yilda 785 marta, 2020 yilda 781 marta, 2021 yilda 1109 marta, 2022 yilda 1075 marta va 2023 yilning I choragida 313 marta mutaxassis fikridan dalil sifatida foydalanilgan [5]. Mutaxassis fikridan dalil sifatida foydalanish haqida JPK normalarida qayd etilmagan bo'lsada, tergov amaliyotida bunga zarurat borligi hamda amalda dalil sifatida mutaxassis fikriga asoslanilayotganligi bu borada JPKga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sud tomonidan har bir jinoyat ishini yuritishda jinoyat-protsessual qonun normalariga qat'iy amal qilish shart bo'lib, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi haqida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida [6] mustahkamlab qo'yilgan.

Sudlar isbot qilish jarayonida ishning muayyan holatlarini aniqlash uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlar zarur bo'lgan barcha hollarda, ekspertiza o'tkazish zarurligi yoki bu holatlar sud muhokamasiga mutaxassisni jalb etish orqali aniqlanishi mumkinligi masalasi hal qilishi lozim hisoblanadi.

JPK 11-moddasida belgilangan talablarga muvofiq, shu jumladan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda, og'ishmay rioya etish muhim ahamiyat kasb etib. Xususan, qonun normalaridan chetga chiqib olingan dalillarning maqbul emas (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi.

Maqbul bo'lmagan dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan JPK 82–84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo'yish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi qarori 9-bandida mutaxassis ishtiroki bilan bog'liq quyidagi hollarda, dalillar JPK talablariga zid tarzda olingan va maqbul emas deb topilishi ko'rsatilgan, agar: so'roq yuritilayotgan tilni (alfavitni) bilmaydigan yoki yetarlicha bilmaydigan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohning ko'rsatuvlari tarjimon (mutaxassis) ishtirokisiz olingan bo'lsa, (*j-kichik bandi*), voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh ko'rsatuvlari zarur hollarda pedagog yoki psixologning ishtirokisiz olingan bo'lsa (*z-kichik bandi*), raqamli (elektron) tashuvchi jismlardagi ma'lumotlar mutaxassis ishtirokisiz olib qo'yilganligi yoki ko'zdan kechirilganligi, jumladan o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tarzidagi, tintuv, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti tarzidagi protsessual harakatlar videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi shartligi to'g'risidagi holatlar ko'rsatilgan.

JPKda mutaxassis fikrini olish yo'llari belgilanmaganligi sababli, bu dalillarni amalda qo'llash qiyin. Agar qonunda tegishli normalar paydo bo'lsa, bizningcha, tayinlanadigan sud ekspertizalarining soni kamaygan bo'lardi, JPK 173-moddasiga binoan ekspertiza tayinlanishi shart bo'lgan hollargina bundan mustasno bo'lardi. Bularning barchasi dastlabki tergov o'tkazish uchun protsessual xarajatlar hamda vaqt sarfi kamayishiga imkon yaratgan bo'lardi.

### References:

1. Семенов Е.А., Власов В.В. Как использовать предварительные исследования специалиста до возбуждения дела // Уголовный процесс. — 2017. — № 5. — С. 84–91.
2. Семенов Е.А., Нечушкина К.А. Участники проверки сообщения о преступлении: проблемы правового регулирования // Вестник Калининградского филиала Санкт-Петербургского университета МВД России. — 2017. — № 2 (48). — С. 30–33.
3. O'zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida” gi 2012 yil 25 dekabrda O'RQ-344-sonli qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/2107763> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 29.02.2024).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 24 avgustdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi 24-son qarori. URL: <https://lex.uz/docs/3895986> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 28.02.2024).
5. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamentining 2023 yil 11 apreldagi 18/2527-son xati.
6. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan

O'zbekiston Respublikasi [referendumida](https://constitution.uz/uz/clause/index) umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 28-modda.  
[URL:https://constitution.uz/uz/clause/index](https://constitution.uz/uz/clause/index) (Elektron manbaga murojaat qilingan sana:  
28.02.2024).

